

O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Komilova Zulxumor Xokimovna

xumor851@mail.ru

Farg‘ona davlat universiteti

To‘ychiboyeva Ruxshona Mansurjon qizi

Farg‘ona Davlat Universiteti talabasi,

e-mail:ruxshonatoychiboyeva1@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilini o‘qitishda bulutli texnologiyalarning qo‘llanilishi, ularning afzalliklari hamda o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatiga ta’siri tahlil etiladi. Shuningdek, ta’lim jarayonida samaradorlikni oshirishda bulutli servislarning o‘rni va istiqbolini ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: bulutli texnologiyalar, masofaviy ta’lim, o‘zbek tili ta’limi, onlayn ta’lim, raqamli ta’lim.

Аннотация. В статье анализируется использование облачных технологий в обучении узбекскому языку, их преимущества и влияние на деятельность студентов и преподавателей. Также показаны роль и перспективы облачных сервисов в повышении эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: облачные технологии, дистанционное обучение, узбекское языковое образование, онлайн-образование, цифровое образование.

Abstract. This article analyzes the use of cloud technologies in teaching the Uzbek language, their advantages and impact on the activities of students and teachers. It also shows the role and prospects of cloud services in increasing efficiency in the educational process.

Keywords: cloud technologies, distance learning, Uzbek language education, online education, digital education.

Kirish: Bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab keng tarqalgan bulutli hisoblash tizimlari va ushbu texnologiya asosida ko‘plab platformalar ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgani hech kimga sir emas. Bu esa o‘z navbatida, ta’limni masofadan turib olish, yangi bilimlarni o‘rganish va shu orqali yangi tilni o‘zlashtirish imkoniyatlari til o‘rganuvchilarga bir qancha qulayliklar hosil qilmoqda. Nafaqat chet tillarini o‘rganishda balki, o‘zbek tilini o‘rganishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishda katta hissa qo‘shayotganligi barchamizga ayon.

Asosiy qism:

1. Bulutli texnologiyalarning mohiyati.

Bulutli texnologiyalar(cloud technologies)-bu foydalanuvchilarga internert orqali dasturlar va ma'lumotlardan foydalanish imkonini beruvchi xizmatlar majmuasidir.Ularning afzalligi shundaki, foydalanuvch kompyuterda maxsus dastur o'rnatmasdan turib, bulutda joylashgan resurslardan bemaolol foydalana oladi.Masalan, GoogleDrive,Google Classroom,Microsoft OneDrive, Dropbox kabi servislar ta'limda keng qo'llaniladi. Ular o'qituvchi va o'quvchiga real vaqt rejimida muloqot qilish, dars fayllarini almashtrish, onlayn test va topshiriqlarni bajarish imkoniyatini beradi.

Bulutli texnologiyalarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- a) moslashuvchanlik:istalgan joyda vaqtda ma'lumotga kirish imkoniyati mavjud;
- b) tejamkorlik:qimmat dastur va uskunalarga ehtiyoj kamayadi;
- c) hamkorlik:bir necha foydalanuvchi bitta hujjat ustida birgalikda ishlay oladi;
- d) xavfsizlik:ma'lumotlar zaxira serverlarda saqlanadi va yo'qolish xavfi kamayadi.

O'zbek tili darslarida bulutli texnologiyalarning amaliy qo'llanishi

Bulutli texnologiyalarni o'zbek tilini o'qitishdagi turlariga quyidagilar yaqqol dalilidir;

a) Google Classroom platformasi yordamida o'qituvchi dars topshiriqlarini joylashtiradi, o'quvchi esa ularni onlayn tarzda bajaradi va yuboradi.

b) Google Docs orqali o'quvchilarga yozma mashqlarni birgalikda tahrir qiladi, imlo xatolarni aniqlaydi.

c) Zoom yoki Google Meet orqali masofaviy og'zaki mashg'ulotlar olib boriladi, bu esa nutq madaniyatini rivojlantiradi.

d) Google Forms, Quizizz, Kahoot kabi interfaol test platformalari o'quvchilarning bilimini onlayn baholash imkonini beradi.

Ushbu dasturlar darsni jonlantiradi, o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi hamda ularning o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

O'qituvchi va o'quvchi faoliyatida bulutli texnologiyalarning o'rni

Dars materiallarini bulutda saqlash va ulanish;

- * Har bir o'quvchining faoliyatini kuzatish va tahlil qilish;
- * Interfaol topshiriqlar orqali darsda samarali tashkil etish;
- * Baholash jarayonida avtomatlashtirish imkoniyati.

O'quvchi uchun:


- O'quv materiallariga istalgan joy va vaqtda kirish;
- Mustaqil o'rganish va o'z-o'zini nazorat qilish;
- Raqamli savodxonlikni rivojlantirish imkoniyati.

Natijada,o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi raqamli hamkorlik tizimi shakllanadi,bu esa o'quv jarayonining sifatini sezilarli darajada oshiradi.

4.Muammolar va ularning yechimlari:

Bulutli texnologiyalar o'quv jarayoniga tadbiiq etishda ayrim texnik va tashkiliy muammolar mavjud:

- Internet tezligining pastligi;

- 
- Texnik vositalarning yetarli emasligi;
 - O‘qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasining turlicha bo‘lishi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi choralarni ko‘rish lozim:

- Ta‘lim muassasalarida barqaror internet tarmog‘i yaratish;
- O‘quvchilarni axborot texnologiyalari bo‘yicha muntazam o‘qitish;
- Milliy bulutli platformalarni ishlab chiqish va ta‘lim tizimiga tadbiiq etish.

Xulosa

Xulosa qilib aytaganda, o‘zbek tilini o‘qitishda bulutli texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi, o‘quvchi faolligini kuchaytiradi va ta‘lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Bulutli texnologiyalar o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni mustahkamlaydi, ularning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois, zamonaviy o‘qituvchi uchun bulutli texnologiyalarni puxta o‘zlashtirish va dars jarayoniga tadbiiq etish muhim kasbiy ko‘nikma sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Ziyomammedov, O. To‘laganov Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent : O‘qituvchi, 2020.

2. Tojiboyev, I., & Karimova, N. (2022). Raqamli ta‘lim muhitida bo‘ljajak o‘qituvchilarni tayyorlashning metodik asoslari. *Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali*, 4(3), 87–95.

3. Qodirova, M. (2021). O‘zbekistonda raqamli ta‘limni joriy etishning tashkiliy-pedagogik asoslari. *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 2(1), 56–63.

4. Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023). Some approaches to teaching programming languages in professional educational institutions. *Education and science in the XXI century*. 2 (38).

5. Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023) The role of information technologies in teaching technical sciences in professional educational institutions. *Scientific and practical journal “Technique”*. Issue No.1.

6. Komilova, Z. Kh. (2023). The role and importance of information technology science in today's society. *Education and innovative research*. Bukhara State University, 2(2), 234-237.

7. Komilova Z.Kh, Nazirjonova. F.S The role of new information technologies in education. *Экономика и социум*. 2021, № 4-1 (83), -C.167-170.

8. Z. X. Komilova. Axborot texnologiyalari fanining hozirgi jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati //Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Buxoro davlat universiteti. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 234-237.

9. Z. X. Komilova & F. S. Nazirjonova. (2020). The value and role of interactive methods in the development of information technology in primary school pupil. *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal)*. ISSN, 2249-7137.